


2020-yilning yanvar-fevral oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2020-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 1396,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi* 102,4 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish—34,2 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat—14,9 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash—7,6 % ga o'sishi kuzatildi.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


2020-yilning yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi



Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 3,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tog`-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajm indeksi 107,2 % ni tashkil etganini kuzatish mumkin.



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2020-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 692,5 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 49,6 % ini tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 6,8 % ni (2019-yil yanvar-fevral oylarida–4,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali–3,6 % (3,5 %), o'rta-quyi texnologiyali–16,1 % (13,6 %) va quyi texnologiyali–73,4 % (78,7 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi % da**

O'rta-yuqori
texnologiyali




2019-yil
yanvar-fevral



O'rta-quyi
texnologiyali



2020-yil
yanvar-fevral



Yuqori texnologiyali



Quyi texnologiyali



Jami sanoat tarkibida ichimliklar ishlab chiqarish—5,0 % (2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 185,3 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish—6,8 % (167,6 %), qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish—0,2 % (140,6 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish—0,9 % (136,6 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish—5,0 % (146,1 %), kiyim ishlab chiqarish—9,3 % (128,8 %), mebel ishlab chiqarish—0,6 % (137,8 %) va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish sohasi—2,1 % (115,7 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda boshqa tolali materiallardan (yog'ochdan tashqari) olingan selluloza—140,0 %, etilen polimerlardan qoplar va sumkalar—119,9 %, yo'l qoplamlari uchun asfaltli aralashmalar—74,1 % ga oshdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-fevralga nisbatan, % da
229,7	Sellyuloza, ming t 90 % 	321,4	140,0 
6,7	Un, ming tonna 	7,3	109,5 
579,0	Kalava ip, tonna 	450,7	77,8 
10,0	Paxta tolesi, ming tonna 	9,9	99,2 
15,5	Paxta urug'i, ming tonna 	15,7	101,3 
70,6	Aroq—ming litr 100 % spirit 	50,8	72,0 



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 667,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 47,8 % ni) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 96,0 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2020-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-fevralga nisbatan, % da
---	----------------------	---	---

Elektroenergiya, mln. kVt/s

3281,8



2927,2

89,2



Issiqlik energiyasi, ming Gkal

37,5



30,3

80,8





Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,3 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar—52,3 % ga, oqova suvlarni yo'qotish 102,5 % ga, shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar—193,7 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2020-yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-fevralga nisbatan, % da
---	----------------------	---	---

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari, mln. so`mda

1977,9



3011,5

152,3 ↑

Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so`mda

1302,0




2521,6

193,7 ↑

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 387,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 6,7 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 27,8 % ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va 2019-yil yanvar-fevralga nisbatan o'sishi sur'ati



2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 59,7 % dan 2020-yilning yanvar-fevral oylarida 58,8 % ga kamayishi kuzatilmogda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 16,4 % ni (2019-yil yanvar-fevral oylarida 8,5 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-fevralga nisbatan o'sishi, % da
Sirdaryo viloyati	387,8	100,0	106,7
Guliston shahri	61,6	15,9	67,5
Shirin shahri	3,2	0,8	91,7
Yangiyer shahri	20,7	5,3	204,2
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut tumani	26,2	6,7	53,8
Guliston tumani	10,3	2,7	92,1
Mirzaobod tumani	39,2	10,1	168,2
Oqoltin tumani	10,8	2,8	102,0
Sardoba tumani	9,9	2,6	102,6
Sayxunobod tumani	25,5	6,6	101,5
Sirdaryo tumani	160,3	41,3	142,7
Xovos tumani	20,2	5,2	113,7


Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 233,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 16,8 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da

2019-yil yanvar-
fevral



2020-yil yanvar-
fevral




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi
korxonalar



Boshqa korxonalar

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi—95,2 % va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarining ulushi-4,8 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

	2020-yil yanvar-fevral, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-fevralga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	1396,1	102,4
Guliston shahri	146,0	101,1
Shirin shahri	626,2	97,0
Yangiyer shahri	64,7	152,1
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	28,4	65,1
Guliston tumani	32,9	127,3
Mirzaobod tumani	59,2	162,7
Oqoltin tumani	52,9	122,3
Sardoba tumani	38,3	104,5
Sayxunobod tumani	51,2	129,1
Sirdaryo tumani	271,2	119,1
Xovos tumani	25,1	106,4

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 44,9 %), Sirdaryo tumani (19,4 %), Guliston shahri (10,5 %), Yangiyer shahri (4,6 %), Mirzaobod tumani (4,2 %), Oqoltin tumani (3,8 %), Sayxunobod tumani (3,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi 2019-yil yanva-fevral oylariga
nisbatan, % da**




Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Mirzaobod tumani (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 162,7 %), Yangiyer shahri (152,1 %), Sayxunobod tumani (129,1 %), Guliston tumani (127,3 %), Oqoltin tumani (122,3 %) va Sirdaryo tumani (119,1 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Yangiyer shahri (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 204,2 %), Mirzaobod tumani (168,2 %), Sirdaryo tumani (142,7 %), Xovos tumani (113,7 %), Sardoba tumani (102,6 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta ulushi Sirdaryo tumani (viloyat iste'mol tovarlari hajmida 41,3 %), Guliston shahar (15,9 %), Mirzaobod (10,0 %) va Boyovut (6,7 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishining, 2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sishi, % da




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Shirin shahrida (33668,6 ming so'm), Sirdaryo tumanida (2136,7 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1665,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 462,7 ming so'm bo'lgani holda Sirdaryo tumanida—1262,9 ming so'mni, Guliston shahrida—686,4 ming so'mni, Mirzaobod tumanida—542,3 ming so'mni va Yangiyer shahrida—483,3 ming so'mni tashkil etdi.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan
sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish,
ming so'm**

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
Sirdaryo viloyati	1665,6	462,7
Guliston shahri	1625,6	686,4
Shirin shahri	33668,6	170,5
Yangiyer shahri	1508,9	483,3
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	221,3	203,9
Guliston tumani	460,4	143,8
Mirzaobod tumani	818,8	542,3
Oqoltin tumani	1027,7	208,9
Sardoba tumani	586,4	151,8
Sayxunobod tumani	669,3	333,5
Sirdaryo tumani	2136,7	1262,9
Xovos tumani	265,6	213,6

**2020-yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi
2019-yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, % da**




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 512,2 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik biznesning umumiyl ishlab chiqarishdagi ulushi 36,7 % ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Boyovut tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Guliston shahrida (83,6 %), Sayxunobod tumanida (72,3 %), Sirdaryo tumanida (70,9 %) kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Guliston tumanida (36,1 %), Oqoltin tumanida (29,7 %) va Shirin shahrida (0,6 %) kuzatildi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda Viloyatda 1816 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 490 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 27,0 %) Guliston shahriga, 314 tasi (17,3 %) Sirdaryo tumaniga, 173 tasi (9,5 %) Yangiyer shahriga to'gri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2020-yil yanvar-fevral)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik (2020-yil yanvar-fevral)

2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyatda 105 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 64,8 foizi Oqoltin tumani, Xovos tumani, Sirdaryo tumani va Guliston shahriga to'g'ri keladi.



Sirdaryo viloyati Statistika
boshqarmasi

Sanoat statistikasi bo`limi

Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23